Philology Matters / ISSN: 1994 – 4233
Uzbekistan State World Languages University

2022 Vol. 41 No. 2
METHODOLOGY
DOI: 10.36078/987654710

Received: April 13, 2022
Accepted: June 16, 2022
Available online: June 25, 2022

Mohigul Fozilova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil izlanuvchisi
Toshkent, O‘zbekiston

ADABIYOT DARSLARINI ONA TILI O‘QUV FANI BILAN INTEGRATSIYALASH

ANNOTATSIYA

Maqola adabiyot darslarida adabiy-nutqiy kompetensiyalarni o‘zaro farqlab shakllantirish yo‘lida og‘zaki nutqning so‘zlashuv uslubi bilan tavsiflanuvchi xususiyatlarini orfografiya me’yorlari asosidagi kitobiy (yozma) nutqdan o‘zgacha, orfoepiya me’yorlari bilan xoslangan tarzda rivojlantirish, bunda ona tili o‘quv fanida o‘rganiladigan til hodisalarining talaffuz va imlo qoidalariga tayanish masalalariga bag‘ishlangan. Adabiyot o‘quv fanining ona tili bilan integratsiyasini nutq o‘stirish bilan ham bog‘lash mumkin. Masalan, nasriy asarlarda asar qahramonlari ba’zan so‘zlashuv uslubida (orfoepiya me’yorlariga amal qilgan hrolda) so‘zlashadilar, ba’zida esa shevada gapiradilar. Vaholanki, o‘quvchilarni o‘zbek adabiy tili normalaridan chetga chiqish holatlari asar qahramonlari obrazini ishonarli qilib tasvirlash ehtiyoji ekanligi bilan tanishtirish, aslida, hamma adabiy tilda gapirishga va yozishga harakat qilishi lozimligini ona tili va adabiyot darslari davomida ta’kidlab boriladi. Ayniqsa, o‘quvchilarning ijodiy yozma ishlari adabiyot bilan ona tilining fanlararo aloqadorligni yaqqol ko‘rsatadi.

Ona tili darslarida yozilgan insholarda ham, adabiyot fanidan olingan insholarda ham imloviy xatolar qatori, matniy xatolar ham tez-tez uchrab turadi. Bunday xatolar ustidagi ishlar esa, asosan, ona tili darslarida yoki adabiyot darslarida ularga murojaat etib amalga oshiriladi. Adabiyot darslarida badiiy asar tahlilida, adabiy-nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishda ona tilidan o‘tilgan mavzularni, ayniqsa, nutq uslublariga doir ma’lumotlar bilan bog‘lab o‘rgatish muhim o‘rin tutadi. Ikki o‘quv fanini integratsiyalash ham shuni taqozo etadi.

Kalit so‘zlar: adabiyot, ona tili, integratsiya,

Mokhigul Fozilova

Independent Researcher, Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: fozilova1204@gmail.com

INTEGRATING LITERATURE LESSONS TO THE MOTHER TONGUE TEACHING SUBJECT

ANNOTATION

The article is aimed at developing the features of oral speech characterized by conversational style at literature lessons, in a way that differs from bookish (written) speech based on orthography norms, in a way that is characterized by the norms of orthography. It is dedicated to the issues of relying on the rules of pronunciation and spelling of a language phenomena studied together with the mother tongue teaching. The integration of literature to the mother tongue classes can also be connected with the development of oral speech. For example, in prose works, the characters of the work sometimes speak using colloquial language (in a manner that adheres to orthographic standards), and sometimes they speak in different dialects. However, it is outlined that through native language and literature lessons students should be introduced to the fact that deviations from the norms of the Uzbek literary language are needed to effectively portray describe the characters of the work, and in fact, everyone should try to speak and write in the literary language. In particular, students’ creative written works clearly show the interdisciplinary connection between literature and the mother tongue.

Both in essays written in native language classes and in essays taken from literature, as well as spelling mistakes, text mistakes are also common. Work on such mistakes is mainly carried out by referring to them in native language classes or literature classes. In the analysis of artistic works in literature lessons, in the formation of literary and speech competences, it is important to give information about speech styles, especially those which have been taught in the mother tongue. The integration of two educational

o‘zaro bog‘lash, nutqni o‘stirish, adabiy-nutqiy kompetensiyalar so‘zlashuv uslubi, orfoepiya me’yorlari, so‘zlashuvga xos, so‘z, so‘z shakli, sintaktik qurilma, insho, matniy xato.

subjects also requires this. In literature classes, it is important to refer to the native language, especially the speech styles, in the analysis of the fiction work, in the formation of literary and speech competences.

Key words: literature, native language, integration, interconnection, speech development, literary-speech competencies, speech style, orthoepy norms, speech-specific, word, word form, syntactic device, essay, text error.

KIRISH

Adabiyot darslarini ona tili o‘quv fani bilan integratsiyalash, uslubiyat qoidalarini esga olish, til hodisalarini ishlatishdagi uslubiy farqlarni o‘rgatish kabi masalalar alohida izlanishlarni talab qiladi. Badiiy asar tahlili jarayonida, asosan, so‘zlashuv uslubi bilan badiiy uslub tafovutlarini ko‘rsatib borish muhim. Bunda quyidagi til hodisalariga alohida diqqat qilinadi:

1) so‘zlashuv uslubi bilan xoslangan holda qo‘llanadigan so‘zlar, so‘z shakllari, so‘z birikmalari, gap tuzilishlari;

2) ularning adabiy tildagi imloviy variantlari;

3) so‘zlashuv uslubi bilan xoslangan holda qo‘llanadigan so‘zlar, so‘z shakllari, so‘z birikmalari, gaplar tuzilishining ko‘proq asar qahramonlari tilida, muallif so‘zlarida ozroq ishlatilishi; ba’zilari yozuvchining individuallikka intilishi tufayli yuzaga kelishi;

4) mumtoz asarlarda, ayniqsa, nazmda davr ruhini aks ettiruvchi til hodisalarining qo‘llanishi.

Metodika ilmida ona tili o‘quv fanini adabiyot bilan, adabiyot o‘quv fanini ona tili bilan o‘zaro aloqadorlik, uzviylik va bog‘lanishda o‘rganish muammolari ma’lum darajada ilmiy tadqiq etilgan, ishlab chiqilgan va yoritilgan [Abdullayeva B., 2006; 264; Mavlonova K., 2019; 142; Jo‘rayev R., Zunnunov A., 2005; 80]. Ayrim tadqiqot ishlarida bu masalaga qisman e’tibor qaratilgan [Qodirov V., 2009; 8]. Biroq ushbu tadqiqotlarda adabiyot darslarida ona tili o‘quv fani bilan bog‘lanishni badiiy asarda ishlatilgan notanish so‘zlar, so‘z shakllari, sintaktik qurilmalar, so‘zlashuv uslubiga xos xususiyatlar (orfoepik me’yorlar), nutqiy faoliyat turlarining o‘ziga xos leksik va grammatik xususiyatlari, ona tili darslarida o‘rganiladigan til hodisalariga tayanish imkoniyatlari nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilmagan. Adabiy-nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini yaratish esa aynan shularni taqozo etadi.

Adabiyot darslarini ona tili bilan bog‘lash orqali badiiy asarlarning ona tilidagi boy til hodisalarini nazariy jihatdan anglash, ularni amalda harakatda ko‘rish, nafosatini tuyish, til hodisalaridan, nutq uslublaridan foydalanishning yuksak namunalari bilan tanishish imkoniyati yuzaga keladi. Adabiyot darslarini ona tili fani bilan o‘zaro aloqadorlikda tashkil qilish jarayoni o‘quvchi uchun ham, o‘qituvchi uchun ham samarali jarayon hisoblanadi. Integratsiyalashtirilgan darslarda o‘quvchilar olgan bilimlarini mustahkamlaydilar. Ona tili ta’limida badiiy matnlarni badiiy tasvir vositalari orqali o‘rganish, adabiyot ta’limida esa badiiy asarlarini lingvistik til

birliklari yordamida tahlil qilish o‘quvchi nutqiy savodxonligi uchun ahamiyatlidir. O‘quvchi ona tili va adabiyotni o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganar ekan, unda inson ruhiyatini anglash, o‘z hayotining ongli ijodkoriga aylanish imkoniyati kengayadi.

B.To‘xliyevning “Adabiyot o‘qitish metodikasi” darsligida [To‘xliyev B., 2006; 10] “Badiiy asarning tilini o‘rganish” masalasiga maxsus bo‘lim ajratilgan. Unda dastlab badiiy asar tili, so‘ng uni tahlil qilishning asosiy xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan. Muallif asar tilini uzviylik va uzluksizlik tamoyiliga amal qilgan holda tahlil qilishda nazarda tutilishi zarur bo‘lgan quyidagi jihatlarni ajratib ko‘rsatadi:

1) o‘quvchilarning oldingi sinflarda ona tili va adabiyot darslarida olgan bilimlari;

2) ularning adabiy-nazariy tayyorgarliklari;

3) matndagi asosiy tasvir vositalarini aniqlay olish hamda ularning shu matnda bajarayotgan vazifalarini tahlil qila bilishga oid malaka va ko‘nikmalari.

Metodist olimlar adabiy asarni o‘rganish jarayonida fanlararo integratsiya, jumladan, tilga doir tushunchalarga murojaat etish mazmunidagi bog‘lanishni zaruriyat deb hisoblaydilar. Jumladan, M.U. Saribayevaning fikricha, “Hozirgi kunda o‘quvchilar qaysi fan asoslarini o‘zlashtirmasin, barcha o‘quv materiallari dunyoni uzviylikda o‘rganishga qaratilmoqda. Bu fanlararo uyg‘unlik, integrativ yondashuv asosida amalga oshadi. Ushbu yondashuv adabiyot o‘qitish doirasida til, adabiyotshunoslik, tarix, geografiya, musiqa, tasviriy san’at, psixologiya, o‘lkashunoslik fanlari bilan bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi” [Saribayeva M., 2011; 76] .

Metodist olim Valijon Qodirov doktorlik dissertasiyasining ilmiy yangiliklaridan biri sifatida “Nazariy ma’lumotlarni singdirish yo‘riqlari va bunda mavzulararo hamda fanlararo integratsiyadan foydalanish usullari” [Qodirov V., 2009; 8] o‘rganilgan.

ASOSIY QISM

Adabiyot o‘quv fanini ona tili bilan integratsiyalashning bir tomoni nutq o‘stirish bilan bog‘lanadi: asar qahramonlari ba’zan so‘zlashuv uslubida (orfoepiya me’yorlariga amal qilgan holda) so‘zlashadilar, ba’zida shevada gapiradilar. O‘quvchilarni o‘zbek adabiy tili normalaridan chetga chiqish holatlari asar qahramonlari obrazini ishonarli qilib tasvirlash ehtiyoji ekanligi bilan tanishtirish, aslida, hamma adabiy tilda gapirishga va yozishga harakat qilishini ta’kidlab borish zarur.

Adabiyot bilan ona tilining fanlararo aloqadorligi ijodiy yozma ishlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ona tili darslarida yozilgan insholarda ham, adabiyotdan olingan insholarda imloviy xatolar bilan birga matniy xatolar ham tez-tez uchraydi. Bunday xatolar ustidagi ishlar esa, asosan, ona tili darslarida, ba’zida adabiyot darslarida amalga oshiriladi.

Matniy xatolar ona tili darslarida maxsus o‘rganilmayotgan til hodisalarini o‘quvchilarning hamma vaqt ham til hissiga tayangan holda amaliy bila olmasliklari oqibatidir. Bunday xatolar uch-to‘rtta emas, balki juda ko‘p. Bu esa yozilayotgan insholarning (yaratilayotgan matnlarning) standart talabiga javob bermasligiga sabab bo‘ladi. Avvalo, matniy xatolarga ona tili o‘qituvchilari jiddiy e’tibor bermaydilar, insholar tekshirilganda ko‘proq imlo va tinish belgilariga oid xatolar aniqlanadi.

O‘quvchilarning yozma nutqi savodxonlik nuqtai nazaridan qay saviyada ekanligiga ular yozgan diktant, bayon va insholar (yaratgan matnlar)ga qarab baho berish odat tusiga kirgan. “Diktant va qisman bayonda bu masala birinchi darajaga ko‘tarilishi to‘g‘ri bo‘lar, lekin ijodiy yozma ishning maqsadi savodxonlikni mustahkamlashgina emas, balki bog‘lanishli nutq malakasining matn sintaksisi darajasida shakllanishi va rivojlanishi uchun zamin yaratishdir. Chunki ana shunday yozma ishlarda o‘quvchining yozma nutqi: yutuq va kamchiliklari oynaday yaqqol ko‘rinib turadi” [Yo‘ldoshev R., Rixsiyeva M., 2020; 33].

Metodik adabiyotlarda esa matniy xatolar ustida ishlash yuzasidan tavsiyalar endigina paydo bo‘la boshladi. Bu tavsiyalar ijodiy yozma ishlarning asl mohiyatini anglash va o‘rgatish ishlarini bog‘lanishli nutq tuzilishi sari yo‘naltirish imkonini beradi. Insholarda yo‘l qo‘yiladigan matniy xatolarni yozma ishning texnik rasmiylashtirilishi, mazmun va kompozitsion tuzilishi jihatidan “tashkiliy-texnik matniy xatolar; mazmuniy-mantiqiy matniy xatolar; gaplarni o‘zaro leksik-grammatik bog‘lashga (jumladan, tinish belgilariga) doir matniy xatolar; matn qismlarida uning tipiga xos kompozitsion tuzilish bilan bog‘liq matniy xatolarga ajratish mumkin [Yo‘ldoshev R., Rixsiyeva M., 2020; 33].

Ijodiy yozma ishlarda yuqoridagi kabi xatolarni bartaraf etish uchun ona tili o‘quv fani bilan bog‘lanmaslikning iloji yo‘q. Bu bog‘lanish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshadi:

– so‘z, morfologik shakllar va sintaktik konstruksiyalar boyligini egallashda;

– so‘zlar, morfologik shakllar va sintaktik konstruksiyalar sinonimiyasi bilan tanisha borishda;

– so‘zlar, morfologik shakllar va sintaktik konstruksiyalarning uslubiy qo‘llanishi bilan tanishib borishda, shu boylikni egallashda;

– nutq uslublari, uslubiy qoidalarni amaliy o‘zlashtirish va ularga amal qilib nutqiy faoliyat turlarini kompetensiyalar darajasida o‘zlashtirishda.

Ko‘rinadiki, ushbu til birliklari ona tili darslarida o‘rganiladi. Binobarin, ular bilan bog‘liq dasturiy va dasturdan tashqari amaliy bilimlar ham shu darslarda ma’lum qilinadi. Adabiyot darslarida ona tili o‘quv fani bilan integrativlikni joriy etish ishlari asarda uchragan til hodisasi ona tili darslarida qachon va qay hajmda o‘rganilganini hisobga olish asosida amalga oshiriladi. Agar ushbu til hodisasi ona tili darslarida hali o‘tilmagan bo‘lsa, u holda uni tegishli manbalardan ko‘rib olib, amaliy o‘rgatishni o‘qituvchi o‘z zimmasiga oladi.

O‘qituvchi o‘zbek tilining talaffuz va imlo qoidalaridagi tafovutlarni tilshunos olim M.Mirtojiyevning “Hozirgi o‘zbek tili” risolasida [Mirtojiyev M., 1992; 25] bilib olishi mumkin. Chunki ushbu ilmiy ishda unli va undosh tovush-harflar talaffuzi hamda imlosidagi tafovutlar imlo qoidalari nuqtai nazaridan bir qadar mufassal yoritilgan.

Adabiyotni o‘rganish jarayonida ona tili o‘quv fani bilan integratsiyalash talab etiladigan zaruriyatlardan yana biri timsol yaratishda foydalaniladigan til hodisalarini o‘z o‘rnida ta’kidlab borishdir.

2010-yilga qadar adabiyotdan yaratilgan darslik va darslik-majmualarda

asarlarni tahlil qilish uchun keltirilgan savol va topshiriqlarda asarning til xususiyati bilan bog‘liq bir-ikkita savol yoki topshiriq berilgan, xolos. Lekin bu savol va topshiriq asarning ayni hissiy-estetik idroki bilan bog‘liq tomonini anglashga qanchalik xizmat qilishi chuqur o‘ylanmagan. Ayni shu asar uchun tilga doir qaysi tushunchalar tahlilga tortirilishi kerakligini aniqlash va zarur tavsiyalar berish ham muammolardan biri sanaladi. Masalan, 5-sinf “Adabiyot” darsligida o‘quvchilarni tabiatni kuzatishga undash maqsadida Mirtemir ijodi bilan bog‘liq shunday savol keltiriladi:

“O‘zingiz yashayotgan shahar yoki qishloq tabiatida yilning to‘rt faslida qanday go‘zal manzaralarni kuzatasiz? “ [Ahmedov S., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh., 2020; 118].

2010-yilgacha amalda bo‘lgan “Adabiyot” darsliklarida nutq uslublari, badiiy asarlarning ilmiy uslubdan farqli jihatlari esga olinmagan, lekin o‘quvchilarga shu mazmundagi bitta savol va bitta topshiriq berilgan: “Sizningcha, ilmiy asarlar bilan badiiy asarlar orasida qanday farqlar bo‘ladi?” (6-sinf “Adabiyot” darsligidagi 9-savol) [Ahmedov S., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh., 2009; 9]. “Badiiy va ilmiy adabiyotlar o‘rtasidagi asosiy farqni ko‘rsating” (7-sinf “Adabiyot” darsligidagi 4-topshiriq) [Yo‘ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J., 2009; 9].

2017-yildan keyin yaratilgan “Adabiyot” darsliklarida ijobiy o‘zgarishlar ko‘p. Jumladan, 5-sinf darsligida [Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh., 2020; 97] o‘quvchilar e’tibori asardagi ayrim so‘zlarga ikki xil usulda tortilgan: 1) ma’nosini mustaqil ravishda aniqlash (4-savol, 97-betda: Ota-onangiz yordamida asar matnida uchragan “ilki”, “cherik”, “muguz”, “bid’at”, “xurofot”, “lashkargoh”, “xachir”, “taxtiravon”, “valad”, “yazna”, “mesh” so‘zlarining ma’nosini topib, lug‘at shaklida daftaringizga yozing.); 2) sahifaosti iqtibosda izohlash (1 Hakim – donishmand. 2 Pand – nasihat. 3 E’timod – ishonch va b.). Lekin asarda bulardan boshqa ma’nosi anglanmagan so‘zlar ham bor-yo‘qligini aytishga doir savol va topshiriqlar mavjud emas.

Nutqiy kompetensiyalarni farqlab shakllantirish ana shunday holatlarda namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi har bir asarni qayta hikoya qilishni topshirishdan avval asarning shu jihatlarini ham o‘rganib chiqishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, 5-sinf “Adabiyot” darsligidagi “Fanorchi ota” hikoyasining birinchi abzatsini keltiraylik:

“*Tor, qiyshiq ko‘chaning o‘ksiz oqshomini Tursunqul akaning churuk darvozasi tepasiga o‘tqizilgan bir fanorning titrak nurlarigina yoritar edi. Uni har kuni kechqurun past bo‘yli, burushiq yuzli bir chol kelib, yoqib ketar edi. Biz uni “Fanorchi ota” der edik. U juda yuvosh, indamas kishiydi; kichkina narvonchasini chaqqon qo‘yib, allaqanday ustalik bilan chiqar, qo‘ltig‘idan kir ro‘molchasini olib, avaylab fanor oynalarini artardi. Fanorni yoqqach, yerga tushib, obkashdek bukilgan yelkasiga narvonchasini qo‘yib, birpasda ko‘zdan yo‘qolar edi”* [Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh., 2020; 99].

Ushbu parchada quyidagi sifatlashli va sifatdoshli birikmalar, o‘xshatishlar so‘zlashuv nutqiga xos emas: *o‘ksiz oqshom, churuk darvoza, yoqqach, o‘tqizilgan bir fanor, titrak nurlar, burushiq yuzli, kir ro‘molcha, obkashdyek bukilgan yelkasi, ko‘zdan yo‘qolar edi.*

Yozuvchi tilidan berilgan bayonda noodatiy birikuvlar, so‘z ishlatishlar uchraydi: *bilan* ko‘makchisining *ila* shakli, *fanorga hujum qilish, o‘pirib tushirardi* va h.k. Bunday holatlarda badiiylikni ta’minlash ehtiyoji bilan nutq uslublari qorishtirilgan bo‘ladi. Noodatiy ifodalar idrokni birmuncha qiyinlashtiradi. Shunga qaramay asar mazmuni: qahramonlar, voqea-hodisalar, narsa-buyumlar tushuniladi.

Idrok xususiyatlariga ko‘ra biz ilgari ko‘rgan narsalarni keyinchalik taniymiz, boshdan kechirganlarni eslaymiz, bo‘lib o‘tganlarni xotiraga tushiramiz. S.L. Rubinshteyn umumlashmalar hosil qilish darajasida o‘zlashtirilgan narsalar (masalan, stol, stul, kitob), tushunchalarni idrok etishni “anglangan idrok” deb ataydi [Rubinshteyn S., 1989; 256]. Shunday ekan, badiiy asarni idrok etishni uning mazmunini tushunishdangina iborat deb bilmaslik lozim.

Adabiyot darslarida badiiy asar tahlili, adabiy-nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishda ona tilidan o‘tilganlar, ayniqsa, nutq uslublariga doir ma’lumotlar bilan bog‘lanish muhim o‘rin tutadi. Ikki o‘quv fanini integratsiyalash ham shuni taqozo etadi. Nutq uslublariga e’tiborni qaratmasak, o‘quvchilar nutqida uslublarning qorishtirilishi, yozma nutqda so‘zlashuv uslubiga xos leksik, morfologik, sintaktik, uslubiy xatolarning barqarorlashuviga sabab bo‘ladi, xatolar shu darajada singib ketadiki, ularni tuzatish qiyinlashadi.

Darsliklarda asar tahliliga doir savol va topshiriqlar “...sharhlashga (izohlashga) harakat qiling”, “...ni sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling”, “...ni tushuntirib bering” tarzida berilgan. Ular badiiy asarni tahlil qilish talabini ifoda etadi. Tabiiyki, bu savol va topshiriqlar o‘quvchilarning hayotiy vaziyatlar, adabiy ijod sirlari xususida mushohada yuritish bilan bog‘liq nutqini o‘stirishga yordam beradi.

Afsuski, adabiy ta’lim ehtiyoji bilan ona tili mavzularida integratsiyalash ishlari yetarlicha amalga oshirilmagan. Bunday deyishimizga sabab – 5–7-sinf ona tili darslarida adabiy ta’lim bilan integratsiyalash maqsadida nutq uslublarining o‘rganilmasligidir. Nutq uslublari, asosan, 8-sinfda o‘tiladi. Shu sinf “Ona tili” darsligida berilgan so‘zlashuv uslubi va badiiy uslub haqidagi nazariy ma’lumotlar mazmuni bilan tanishaylik.

“So‘zlashuv uslubi kishilarning oilada, ko‘cha-ko‘yda fikr almashinuvi jarayonida qo‘llaniladigan nutq uslubidir. So‘zlashuv uslubi, ko‘pincha, dialog shaklida bo‘ladi.

Badiiy uslub badiiy adabiyot, ya'ni badiiy asarlarga xos bo‘lib, unda badiiylik, ifodaviylik, ta’sirchanlik kuchlidir” [Qodirov M., 2014; 5].

Ushbu nazariy ma’lumotlarda so‘zlashuv uslubi qo‘llanadigan o‘rniga ko‘ra tavsiflangan, lekin uning o‘ziga xos til birliklariga ishora qilinmagan. Badiiy uslub badiiy asarga xos bo‘lsa, ularda boshqa uslublarning mavjud bo‘lishi anglanmay qoladi.

5-mashqda matnlarni o‘qish va ularning har biri nutqning qaysi uslubiga xos ekanligini aniqlash vazifasi qo‘yilgan. Afsuski, bu yerda so‘zlashuv uslubiga doir matn o‘z aksini topmagan. Mavzu so‘ngida o‘tilgan nazariy ma’lumotga doir uchta topshiriq berilgan. Ular muammoli emas: nazariy ma’lumotni yoddan aytishni taqozo etadi, ya’ni o‘quvchilarning o‘z nutqi talab qilinmaydi. Professor R. Niyozmetova

to‘g‘ri ta’kidlaganidek, ayni “Matn asosidagi mushohadalar jarayonida, tabiiyki, nutq o‘stirish ishlari ham amalga oshiriladi” [Niyozmetova R., 2006; 20]. Bunday nutq o‘quvchilarning o‘z so‘zlari bilan yuzaga keltiriladi.

Badiiy asarni eshittirish yoki o‘qitishga tayyorgarlik bosqichida va bevosita o‘qish jarayonida, shuningdek, asarni tahlil qilish chog‘ida ona tili o‘quv fani bilan integratsiyalash ishlari amalga oshirilishi uchun qulay imkoniyatlar tug‘iladi. Bunda dastlab asarni tinglash va o‘qish jarayonida tushunishni qiyinlashtiradigan talaffuzi va yozilishida farqi mavjud bo‘lgan leksik va grammatik materiallar, ayrim gap konstruksiyalari oldindan belgilab chiqiladi, darsda ular ustidagi ishlar tashkil etiladi. Adabiyot darslaridagi bunday tayyorgarlik onglilikni ta’minlaydi, ayni paytda, tinglab tushunish va o‘qish kompetensiyalarini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Ushbu jarayonda ona tili darslarida o‘rganilgan nazariy ma’lumotlar o‘quvchilar xotirasiga tushiriladi yoki boshqa usullardan foydalaniladi.

Ona tili fanining 5-sinf talabiga ko‘ra o‘quvchilar bu sinfda “Leksikologiya”, “Fonetika”, “Sintaksis va punktuatsiya” bo‘limlarini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar og‘zaki va yozma nutqda so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llay olish, o‘qigan matnlarini to‘g‘ri talaffuz qila olish kabi malakalarga ega bo‘ladilar. Bundan tashqari 5-sinf o‘quvchilari maqol va hadislarning farqli jihatlari va ulardan nutq jarayonida samarali foydalanish ko‘nikmasini egallaydilar. 5-sinfdan e’tiboran adabiyot darslarida ko‘rila boshlanadigan adabiy tayyorgarlik bilan integratsiyalash zaruriyati tug‘iladi. Integratsiyalash o‘quvchilarning badiiy tasvir vositalariga doir bilim, ko‘nikma va malakalaridan ona tili darslarida foydalanish, shularga tayangan holda badiiy matnning til xususiyatlarini, undagi so‘z ishlatish mahoratini o‘rganish va shu orqali adabiy tayyorgarlikni oshirish, o‘quvchilarning badiiy ijodiga ta’sir etish mazmunida tashkil etiladi.

5-sinf adabiyot darsligida berilgan hikoyalarni o‘rganishda o‘quvchilarning ona tili fanidan olgan bilimlarini mustahkamlash va hayotiy vaziyatlarda foydalana olishlari uchun savol va topshiriqlarni ona tili faniga bog‘laymiz. Har bir yozuvchi asarning mazmunini ochib berish, obrazlar ruhiyatini yoritish, asardagi voqea-hodisalarning mazmun-mohiyatini o‘quvchisiga yetkazish uchun so‘z va iboralarning mosini tanlaydi. Masalan, 5-sinf adabiyot darsligiga kiritilgan Oybekbibg hikoyalari bunga misol bo‘ladi. Asardagi har bir personajning tili, so‘zlash tarzi uning qanday turmush kechirganligi, madaniyati, ruhiyati haqida ma’lumot beradi. Oybek “Bolaning ko‘ngli poshsho” hikoyasida qahramonlar nutqida shevaga xos so‘zlar, arxaik so‘zlar, tarixiy so‘zlar va sinonim so‘zlarni o‘rinli qo‘llash orqali tasvirlaydi. Hikoya matni bola tilidan bayon qilingan. Adabiyot o‘qituvchisi hikoyani o‘rganish jarayonida asarda bolaning buvasi, Dadaqo‘zining nutqida “Og‘zingga siqqancha aytaverasanmi?” iborasi va so‘zning ma’no ko‘chish hodisasi orqali o‘zbek tilining keng imkoniyatlaridan foydalanib asar ma’nosini chuqur anglatishi mumkin. Ushbu ibora oddiy so‘zlashuv uslubiga to‘g‘ri kelishini ham ta’kidlash joizdir. Shu o‘rinda o‘quvchi iboralardan qanday maqsadlarda foydalanish mumkinligini anglaydi. Bundan tashqari, hikoyada “tanda”, “bo‘zchi”, “poq-poq”, “shashpar”, “gavronday”, “baqqol”, “jiyak” kabi arxaik so‘zlar ham qo‘llanilgan. 5-sinf ona tili darsida o‘quvchilar tarixiy

va arxaik so‘zlarning farqini o‘rganadilar. Adabiyot darsida esa o‘quvchilar berilgan arxaik so‘zlarning bugun qanday atalishini topishlari mumkin.

Hikoyada qahramon nutqida keltirilgan “picha” so‘zi shevaga xos so‘z va u Surxondaryo va Qashqadaryo shevalarida qo‘llaniladi. Shevaga xos so‘zlardan foydalanish orqali qahramonlar nutqini yanada aniqlashtiradi. “Picha” so‘zining oz, andak, bir oz, ozgina, salgina kabi sinonimlari borligi o‘quvchilarning so‘z boyligini yanada oshiradi.

Bundan tashqari, asardagi “g‘ovur-g‘uvur”, “g‘ivillama” so‘zlari taqlid so‘zlardir. O‘quvchilar ona tili darslarida o‘rgangan grammatik qoidalarning nutq jarayonida qanday qo‘llash haqida tushuncha va tasavvurga ega bo‘ladilar. Taqlid so‘zlar ham asar mazmunining shiradorligini oshirishda, obrazlilikni vujudga keltirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ijodkorning so‘z ishlatishdagi mahorati bilan tanishish adabiyot darslarida nutq madaniyatini rivojlantirish yo‘lidagi muhim ishlardandir. Adabiyot darslarida o‘quvchilarning o‘tilgan asarni qay darajada tushunganliklarini nazorat qilish maqsadida savol va topshiriqlardan foydalaniladi. Savollar ko‘pincha voqealarni eslab aytishni talab qiladigan mazmunda tuzilgan. Ular o‘quvchilarning asarni chuqurroq o‘rganishiga emas, balki o‘qigan-o‘qimaganligini, nimalar yodda qolganligini aniqlash uchungina xizmat qiladi. O‘quvchilar bilan *So‘z o‘yinlari* o‘tkazish ularning fikrlashi va his-hayajonlarini namoyon etishini faollashtiradi. Bunda o‘qituvchi tashabbuskor va tashkilotchi bo‘lishi kerak. O‘quvchilarga quyidagicha topshiriqlarni berish tavsiya etiladi:

1) matndan obrazli so‘zlarni toping;

2) matndan ajratib ko‘rsatilgan bo‘yoqdor so‘zlarning, iboralarning ma’nolarini izohlang;

3) asar mazmuniga mos keluvchi aforizm va maqollar ayting;

4) so‘zlarga mos keluvchi iboralar qatorini hosil qiling.

Yozuvchi yoki shoirning so‘z ishlatish mahorati haqida gapirganda, badiiy asardan olingan biror gapni emas, balki biror parchani ajratib olib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. O‘yin chog‘ida o‘quvchilar murakkab til hodisalarini egallaydilar, topqirlik kabi xislatlarini tarbiyalaydilar, murakkab masalalarni yechish orqali aqlni peshlaydilar. Ular buni topshiriq berilgani uchun bajarmaydilar, balki topshiriqni bajarish uchun asar ma’nosiga chuqur kirib boradilar.

Adabiy asarning til xususiyatlari ustida ishlash bosqichi zaruriy bosqich hisoblanadi. O‘qituvchilar yozuvchi yoki shoirning hayoti va ijodi, asari yuzasidan berilgan savol va topshiriqlarning faqat 1-2 tasida badiiy tasvir vositalarining qo‘llanilishini tushuntirish, misollar toptirish bilan cheklanib qolmasliklari kerak. Albatta, bu uzluksiz va uzviy ta’lim uchun yetarli emas. Shu bois har bir adabiyot o‘qituvchisi mashg‘ulot so‘ngida badiiy asarning tili, badiiy xususiyatlari haqida ma’lumot berishi lozim. Jumladan, 6-sinf adabiyot darsligida Said Ahmadning “Qoplon” va “Sobiq” hikoyalari keltirilgan. Said Ahmad “Sobiq” hikoyasida qahramonlarning kechinmalarini ifodalashda so‘z o‘yinlaridan, iboralardan, ritorik so‘roq gaplar, badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalanadi. Masalan, “Idoraga kirishim bilan yetti-sakkiz odam atrofimni o‘rab olishsa bo‘ladimi?”,

“Tavba, shuncha paxtani o‘zim terdimmi yo birov qo‘shib qo‘ydimi?”, “Borsam, rais oyog‘i kuygan tovuqday bezovtalanib, kutib turgan ekan”, “O‘zingni tut, katta-kichikning oldida sharmanda qilma”, “Xoh ishoning, xoh ishonmang, birinchi kuniyoq to‘qqiz tonna paxta teribman”, “Raisimiz u yoqqa borsam, u yoqqa, bu yoqqa borsam, bu yoqqa ergashadi”, “drujinachilar”, “rayon”, “kaloriya”, “mexanizatorlar”, “stansiya”, “bufet”, “komitet”,”uncha – muncha”, “domotdix”, “pionerlar”, “pensiya”, “vistavka”, “oblast”, “faner”, “Qo‘rqa-pisa”, “yetti-sakkiz”, “to‘ppa-to‘g‘ri”, “katta-kichik”, “yer-ko‘kka”, “yap-yangi” kabi misollar hikoyaning deyarli har sahifasiga uchraydi. Asar matnini o‘qiyotganda o‘quvchilarning diqqatini asar tilidagi ushbu jihatlarga qaratish ularning so‘z boyligini oshirishda, mustaqil fikr yurita olishida hamda dunyoqarashining kengayishida muhim o‘rin tutadi.

8-sinf uchun adabiyot darsligiga kiritilgan Shukur Xolmirzayevning “Ot egasi” hikoyasi qahramonlari nutqidagi shevaga xos so‘zlar ular tabiatini yorqinroq aks ettirishi bilan ham ahamiyatlidir. Shevaga xos so‘zlar ularning tabiatini yanada indivudiallashtiradi, aniqlashtiradi. Masalan,qahramonlar nutqida “bo‘lipti” (bo‘libdi), “kepti” (kelibdi), “yo‘ng‘ichqa” (beda), “sholcha” (gilam), “chalob” (ayron), “chakki” (suzma), “tulum (idish), “kepsiz” (kelibsiz), “bulab” (botirib), “azalgi” (avvalgi), “kulliklab” (bog‘lab) kabi Surxondaryo shevasiga xos so‘zlarni uchratamiz. Bundan tashqari, yozuvchi ushbu hikoya matnida varvarizm, sinonim so‘zlar va iboralardan unumli foydalanadi. Varvarizm boshqa tillardan kirib kelgan so‘z va iboralardir. Varvarizmdan ko‘pincha, davr ruhini tasvirlashda foydalaniladi. Hikoyada Egamberdi va Inodning nutqida “milisa”, “rayon”, “partiya komiteti”, “sovxoz”, “organ”, “pogon” kabi chet so‘zlar o‘rinli ishlatilgan. Hikoyada evfimizmlar ham asar badiiyligini oshirgan. Evfimizm biror so‘zni aytish noqulay bo‘lgan vaziyatlarda o‘sha so‘z yoki so‘z birikmasini qo‘llash demakdir. Bunga misol qilib, “qishloq chetida bosmachilar bilan urushda halok bo‘lgan otasining qabri do‘ppayib turar…”, “…bola-chaqasining allaqachon sob bo‘lganini ko‘radi”, “Ot badani sovidi”, “o‘lgan desam ham ishonishmadi” jumlalarini keltirish mumkin.

Ona tili fanining 9-sinf talabiga ko‘ra, bu sinfda “Punktuatsiya”, “Matn va uning turlari”, “Sintaksis” bo‘limlarini o‘rganish ko‘zda tutilgan. Sintaksis bo‘limidagi “Qo‘shma gaplar” mavzusi batafsil yoritilgan. Tinish belgilarini og’zaki va yozma nutqda qo‘llash hamda ularning ahamiyati yuzasidan ma’lumotlar berilgan. 5-sinf adabiyot darsligiga 15-asrda yashab ijod qilgan Xojaning hikoyatlaridan namunalar keltirilgan. Ona tili darsida o‘rganilgan lingvistik vositalarning epik asarlarda qo‘llanilishi bilan bog’lab o‘rganish o‘quvchilarning bilimlarini amaliyotda qo‘llashda samarali bo‘ladi. Asardan keyin berilgan savol va topshiriqlarda tilga oid topshiriqlar berilmaganligini kuzatishimiz mumkin. Iskandar Zulqarnayn haqidagi hikoyatlarni o‘rganishda o‘quvchilarning ona tili fanidan olgan bilimlarini mustahkamlashni hamda, turli hayotiy vaziyatlarda ulardan foydalana olishga o‘rgatishni maqsad qilib berilgan savol va topshiriqlarga ona tili fani bilan bog‘lab o‘rganish masalasi nuqtai nazaridan e’tibor qaratamiz. Xoja hikoyatlari qisqa, ixcham va mazmunli. Hikoyatlar tushunarli tilda bayon qilingan. o‘quvchilarga hikoyatni o‘qish asnosida u turkiy tilda yozilgani aytiladi. Har bir hikoya matni o‘quvchilarga to‘liq o‘qitiladi. So‘ngra

notanish so‘zlarning izohli lug‘ati daftarga yozdiriladi. Masalan,

Xiroj – yer solig‘i.
Inoq quli – hukmdor qattiq ishongan saroy mulozimi.
Harna – har qanday.
Bosh urdilar – bosh egdilar,rozi boldilar.
Tonglosi – ertasi.
Odilturusan – adolatlisan.

O‘quvchilarga matndan ko‘chirma gapli qo‘shma gaplar va ergashgan qo‘shma gaplarga misol keltirish topshiriladi. Bu o‘quvchilarning imloviy savodxonliklarini oshirishga xizmat qiladi.

Iskandar aydi: ne hiyla qilib Doroni tutg‘aymiz? Vazirlar aydi: Doroning bir inoq quli bor, alarga elchilar yiboring, taqi aytsunlar: sizlar Doroni o‘ldursangizlar, harna murodlaringiz bo‘lsa oni qilurmiz.

Yana Iskandar aydi: siz ikkingiz Doroni o‘ldursangizlar, lashkarda barchadin yuqori o‘run beroyin, deb va’da qildi ersa, bu qullar bosh urdilar.

Ul qullar aydilar: ey Iskandar, bizga ne va’da qilib erding? Odilturursan, nechun zolim sultonlartek va’dani buzarsan?

Iskandar aydi: man va’dani buzmasman. Doro sizlarni muncha tarbiyat qilib sizlarg‘a o‘run berdi, shartimga butunman, vale sizlar xointurursizlar, muncha vaqtdan beri Doro sizlarni tarbiyat qilib asradi, sizlarga o‘run berdi, aning haqini bilmadingiz, anga yamonlik qildingiz, o‘lturdingiz. Emdi maning haqimni taqi bilmassizlar.

Shul so‘zni aytib elchi borgandan so‘ng shul xabarni aytibtudur. Ondin so‘ng ul inoq ikki qul bir kecha Iskandarning yoniga kelib va’dani bir yerda qo‘yub, o‘ldurmaqchi bo‘ldular.

Yuqoridagi kabi ishlar ona tili va adabiyot darslarida beriladigan bilim, ko‘nikma va malakalarni uzviylashtirish samarasi bo‘la oladi. Shu munosabat bilan ona tili darslarida badiiy asarlardan olingan namunalar ustida olib boriladigan ish usullari adabiyot darslarida asarni o‘qib o‘rganish ish usullari bilan qay darajada integratsiyalasha oladi degan tabiiy savol tug‘ilishi mumkin.

Asarni o‘qish jarayonida notanish so‘zlar, iboralar izohlanadi. Adabiyot darslarida badiiy asardan olingan shunday so‘z va iboralar uchrasa, ularni izohlamaslikning sira ham iloji bo‘lmasligi lozim. Bu borada ona tili va adabiyot darslaridagi so‘z boyligini oshirish ishlarida integratsiya kuzatiladi.

Ona tili va adabiyot darslarida badiiy tasvir vositalarini integrativ yondashuv asosida o‘rgatish muammolari ma’lum darajada keng yoritilgan. Bu borada K. Mavlonovaning tadqiqot ishidagi [Mavlonova K., 2019; 142] tavsiyalar, ta’lim mazmuni va metodlari haqidagi xulosalar alohida ahamiyat kasb etadi.

Badiiy asarlarning til xususiyatlarini so‘zlashuv nutqiga qiyosan o‘rganishdan ayon bo‘lganidek, ularda to‘ldiruvchi va holni kesimdan keyin qo‘yish holatlari mavjudki, bu so‘zlashuv uslubiga xosdir. Tilshunoslikda bu hodisa parsellyasiya deb nomlanadi [Muhamedova S., Saparniyozova M., 2011; 70]. 8-sinf “Ona tili” darsligida

gap bo‘laklarining joylashish tartibi haqidagi ma’lumotni ko‘zdan kechirib, ushbu muammoga javob izlaymiz. Darslikda shunday deyiladi: “*Bilib oling.* o‘zbek tilida *gap bo‘laklarining joylashish tartibi*, asosan, erkin bo‘lsa-da, ular gapda ma’lum grammatik qoidalar asosida o‘rinlashadi. Odatda, gapda ega va unga bog‘langan bo‘laklar oldin, kesim va unga bog‘langan bo‘laklar keyin joylashadi, ba’zan aksinchasi ham bo‘ladi: *Bu yo‘llar menga tanish. – Menga tanish bu yo‘llar.*

Eganing ko‘proq gap boshida, kesimning, asosan, gap oxirida *(Men keldim),* hol *(ohista gapirdi)* va to‘ldiruvchining kesimdan *(she’rni yod oldi),* aniqlovchining egadan oldin *(qizil gul, do‘stimning akasi)* joylashuvi odatdagi, me’yoriy tartibdir. Gap bo‘laklarining odatdagi va o‘zgargan tartibining nutqda o‘z qo‘llanish o‘rinlari bor.

Odatdagi tartib ilmiy asarlar uslubi uchun mos bo‘lsa, o‘zgargan tartib og‘zaki va badiiy (ayniqsa, she’riy) nutq uslubi uchun xos [Qodirov M., Ne’matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B., 2019; 82].

Ko‘rinadiki, o‘zgargan tartibda ham kesim gap oxirida keladi, to‘ldiruvchi va hol undan keyin qo‘yilmaydi. Albatta, gapda so‘z tartibi borasida nasriy asarlarni nasriy asarlar bilan taqqoslab bo‘lmaydi: nasriy asarlarda inversiya hodisasi, ko‘tarinki ruhda aytiladigan gaplarni hisobga olmaganda, deyarli kuzatilmaydi.

Adabiyot o‘quv fanining til hodisalarini farqlashga, uslubiy xosligini anglatishga nisbatan bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun ona tili o‘quv fani bilan 5-sinfdan boshlab ta’lim mazmunini qayta ko‘rib chiqish, nazariy ma’lumotlarni boyitish zaruriyati seziladi.

Asarda ayrim so‘zlar, so‘z shakllari, so‘z birikmalari, gaplar so‘zlashuv uslubiga xos tarzda bitilgan. Masalan, “Do‘nan” hikoyasida asar qahramoni tilidan quyidagi jumlalar keltirilgan: Faqat men minardim uni. ...go‘ja, ayron olib chiqardik o‘roqchilarga. Bitkuchiydi. Turipti. Baqavli.

Ayrim gaplarda to‘ldiruvchi yoki holning gap oxirida berilishi gaplarda o‘zgargan tartibni yuzaga keltiradi. Tilshunoslikda gapdagi so‘z tartibi ikki guruhga ajratiladi: odatdagi tartib va o‘zgargan tartib. Gapda so‘z tartibining o‘zgarishi nasriy asarlarda, asosan, mantiqiy urg‘u bilan bog‘lanadi, she’riyatda esa inversiya muhim rol o‘ynaydi. Lekin gaplarda to‘ldiruvchi yoki holning gap oxirida berilishi mantiqiy urg‘uga aloqador emas: bu o‘rinda gap tuzilayotganda xotiraga kelmagan bo‘lakni gap oxirida qo‘shib qo‘yish mazmunida sodir bo‘ladi. Masalan, *...go‘ja, ayron olib chiqardik o‘roqchilarga* gapida o‘roqchilarga so‘zini o‘z o‘rnida aytish esga kelmagani uchun gap oxirida qo‘shib qo‘yilgan. Ushbu o‘zgargan tartib muallif so‘zida bola tilidan aytilgan, shuning uchun yozuvchi uni o‘z o‘rnida qoldirgan.

Yuqoridagilarni nazarda tutgan holda biz muammo ko‘lamini optimallashtirish uchun faqat nasriy asarlar ustida so‘z yuritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Adabiy-nutqiy kompetensiyalarning o‘z fikrlarini og‘zaki bayon qilish turi so‘zlashuv uslubi bilan tavsiflanuvchi lingvodidaktik asoslarni taqozo etadi. So‘zlashuv uslubining asosini orfoepik me’yorlar tashkil qilar ekan, ular qoidalar sifatida ona tili darslarida o‘rganilgan bo‘lishi, ikki o‘quv fanini integratsiyalash imkonini berishi lozim. Lekin, metodist olim R.Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek, amaldagi “Ona tili”

darsliklarida ayni shu masalada, ya'ni orfoepiya qoidalarini nazariy ma'lumotlar asosida tushuntirishda kemtik o'rinlar ko'pligi bir qator muammolarni keltirib chiqarmay qolmaydi. O'qituvchi adabiyot darsida orfoepik me'yorni eslatmoqchi bo'lsa, u holda R.Yo'ldoshevning quyidagi tavsiyasini nazarda tutishi kerak: "… qoidada til hodisalarining qanday aytilishi zarurligi aks etishi lozim; shuningdek, izohda ba'zan so'z emas, asosan, qanday talaffuz qilinishi kerakligi ta'kidlanmog'i darkor. Tovush o'zgarmaydigan holatlarning esa istisno holat sifatida ko'rsatilishi to'g'ri bo'ladi" [Yo'ldoshev R., 2020; 132].

XULOSA

So'zlashuv uslubining adabiy til me'yorlariga asoslanadigan til hodisalarini o'z ichiga oluvchi ona tili bilan integratsiyalashgan adabiy ta'lim mazmuni – ayrim til hodisalarining qo'llanishini ona tili o'quv fani bilan bog'lab tushuntirishni taqozo etadi. So'zlashuv uslubining xususiyatlari E.Qilichev va boshqa tilshunos olimlarning ilmiy ishlarida ba'zan umumiy, ba'zan mufassal tarzda bayon qilinadi. Biz ayrim kuzatishlarimiz asosida o'z tavsiyalarimizni bayon qildik. Zero, asar ustida ishlayotgan o'quvchilarga so'zga ehtiyotkorlik bilan yondashishni o'rgatish bugungi kun talabidir.

Xullas, adabiyot darslarida nutqiy faoliyat turlarini kompetensiyalar darajasida shakllantirish yuzasidan tegishli bilim, ko'nikma va malakalarni ushbu kompetensiyalarning farqli jihatlarini bilish asosida egallash mumkin. Nutqiy faoliyat turlari bilan bog'liq kompetensiyalar, asosan, og'zaki va yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlaridan eng muhimi sifatida so'zlashuv uslubiga e'tiborni qaratishni, shu maqsadda adabiyot o'quv fanini ona tili bilan integratsiyalashni ta'lim mazmunidan boshlab yo'lga qo'yishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva, B. (2006). Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi akademik liseylarda matematika o'qitish misolida). *Ped. fan. dok. dis*. Toshkent.
2. Ahmedov, S., Qosimov, B., Qo'chqorov, R., Rizayev, Sh. (2007). *Adabiyot: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik.* Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi.
3. Ahmedov, S., Qo'chqorov, R., Rizayev, Sh. (2009). *Adabiyot: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua* (2 qay. ish.). Toshkent: "Ma'naviyat" nashriyot uyi.
4. Ahmedov, S., Qosimov, B., Qo'chqorov, R., Rizayev, Sh. (2020). *Adabiyot: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik* (3 qay. ish.). Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi.
5. Jo'rayev, R., Zunnunov, A. (2005). *Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalash.* Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi.
6. Leonov, S. (1988). *Razvitie rechi uchashixsya na urokax literature*. Moskva: Visshaya shkola.
7. Mavlonova, K. (2019). Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish. *Ped. fan. fals. dok. dis.* Toshkent.
8. Mirtojiyev, M. (1992). *Hozirgi o'zbek tili.* Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.
9. Muhamedova, S., Saparniyozova, M. (2011). *Matn lingvistikasi*. Toshkent.
10. Niyozmetova, R. (2006). *Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi.* Toshkent: "Fan" nashriyoti.
11. Olim, S., Ahmedov, S., Qo'chqorov, R. (2010). *Adabiyot: umumiy o'rta ta'lim maktablari-*

ning 8-sinfi uchun darslik-majmua. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi.
12. Qodirov, V. (2009). Umumta’lim maktablarida o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari. *Ped. fan. dok. dis*. Toshkent.
13. Qodirov, M., Ne’matov, H., Abduraimova, M., Sayfullayeva, R. (2014). *Ona tili: umumiy o‘rta maktablarining 8-sinfi uchun darslik* (3 qay. ish.). Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiyot uyi.
14. Rubinshtejn, S.L. (1989). *Osnovy obshchej psihologii.* Moskva: Pedagogika.
15. Saribayeva, M. (2011). Umumta’lim maktablarida Alisher Navoiyning asarlarini zamonaviy usullarda o‘rgatish (“Xamsa” asari asosida). *Ped. fan. dok. dis*. Toshkent.
16. To‘xliyev, B. (2006). *Adabiyot o‘qitish metodikasi.* Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyot uyi.
17. Yo‘ldoshev, Q., Qodirov, V.,Yo‘ldoshbekov, J. (2009). *Adabiyot: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik.* Toshkent: “Yangi yo‘l” poligraph servise.
18. Yo‘ldoshev, Q., Qosimov, B., Qodirov, V., Yo‘ldoshbekov, J. (2009). *Adabiyot: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua.* Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi.
19. Yo‘ldoshev, R. (2020). Maxsus shakllantirilgan orfoepiya qoidalarni o‘rgataylik. *Pedagogik mahorat,* 2, 131-133.
20. Yo‘ldoshev, R., Rixsiyeva, M. (2019). *Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi.* Toshkent: “Fan va texnologiyalar” nashriyot uyi.

REFERENCES

1. Abdullayeva, B. (2006). Methodological and didactic foundations of interdisciplinarity (as an example of teaching mathematics in academic lyceums of social and humanitarian direction). *DSc thes. in ped. scien*. Tashkent.
2. Ahmedov, S., Kasimov, B., Kuchkarov, R., Rizayev, Sh. (2007). *Literature: a textbook for the 5th grade of general secondary schools*. Tashkent: “East” Publishing-Printing Joint-Stock Company.
3. Ahmedov, S., Kasimov, B., Kuchkarov, R., Rizayev, Sh. (2020). *Literature: textbook for the 5th grade of general secondary schools* (3rd eds.). Tashkent: “East” Publishing-Printing Joint-Stock Company.
4. Ahmedov, S., Kuchkarov, R., Rizayev, Sh. (2009). *Literature: a textbook-complex for the 6th grade of general secondary schools* (2nd eds.). Tashkent: “Spirituality” Publishing House.
5. Jurayev, R., Zunnunov, A. (2005). *Integration of educational subjects in the educational process*. Tashkent: “East” Publishing-Printing Joint-Stock Company.
6. Kadirov, M., Ne’matov, H., Abduraimova, M., Sayfullayeva, R. (2014). *Mother tongue: a textbook for the 8th grade of general secondary schools* (3rd eds.). Tashkent: Publishing House named after Chulpan.
7. Kadirov, V. (2009). Scientific and methodological bases of teaching examples of Uzbek classic literature in general education schools. *DSc thes. in ped. scien*. Tashkent.
8. Leonov, S. (1988). *The development of students’ speech in literature lessons*. Moscow: Higher School.
9. Mavlonova, K. (2019). Improving the teaching methodology by integrating the science of the mother tongue with the science of literature through an artistic text. *PhD thes. in ped. scien*. Tashkent.
10. Mirtojiyev, M. (1992). *Current Uzbek language*. Tashkent: “Teacher” Publishing House.
11. Muhamedova, S., Saparniyozova, M. (2011). *Text linguistics*. Tashkent.
12. Niyozmetova, R. (2006). *Methodology of studying Uzbek literature in the continuous education system*. Tashkent: “Science” Publishing House.

13. Olim, S., Ahmedov, S., Kuchkarov, R. (2010). *Literature: a textbook-complex for the 8th grade of general secondary schools*. Tashkent: Publishing House named after Gafur Gulam.
14. Rubinshtein, S.L. (1989). *Fundamentals of general psychology*. Moscow: Pedagogy.
15. Saribayeva, M. (2011). Teaching the works of Alisher Navoi in modern schools (based on the work "Khamsa"). *DSc thes. in ped. scien*. Tashkent.
16. Tukhliyev, B. (2006). *Methodology of teaching literature*. Tashkent: "New Age Generation" Publishing House.
17. Yuldashev, K., Kadirov, V., Yuldashbekov, J. (2009). *Literature: a textbook for the 9th grade of general secondary schools*. Tashkent: "New Road" Polygraph Service.
18. Yuldashev, K., Kasimov, B., Kadirov, V., Yuldashbekov, J. (2009). *Literature: a textbook-complex for the 7th grade of general secondary schools*. Tashkent: "East" Publishing-Printing Joint-Stock Company.
19. Yuldashev, R. (2020). Let's teach specially formulated spelling rules. *Pedagogical Skills*, 2, 131-133.
20. Yuldashev, R., Rikhsiyeva, M. (2019). *Text errors in essays, methods of their correction*. Tashkent: "Science and Technology" Publishing House.